

IJTIMOYIY TARMOQLARNING YOSHLAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI.
IJTIMOYIY TARMOQLARGA QARAMLIK. XXI-ASR EPIDEMOYASI.

Jo'rayeva Kaniza Akbarovna
*„ALFRAGANUS” Universiteti Pedagogika va
psixologiya yo'nalishi bakalavr
3- bosqich talabasi*

Annotatsiya ; Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyat orasida va yoshlar hayotida global tarmoqning o'rni tobora oshib borishi, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish orqali yuz beradigan salbiy oqibatlar va bularni yoshlarga ta'siri haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: internet, internetga qaramlik, onlayn, kompyuter virtual olam, raqamli asr, o'rgimchak to'ri.

„Internet –bu global kompyuter taarmog'i bo'lib, u foydalanuvchilarga ulkan erkinliklarni beradi” – rasmiy formulalardan biri. Tarmoqq birinchi marta „kirgan” odam odatda internet haqida yaxshi taassurot qoldiradi.

Lekin haqiqat ham shundaymi? Siz buni faqat vaqt o'tishi bilan tushunasiz. Internetda qancha uzoq bo'lsangiz, unda nafaqat ortiqcha, balki kamchiliklarni ham ko'rasiz. Ammo, afsuski, Internet bizning ongimizni qanday to'ldirishni hamma hamtushuna olmaydi. Internet bizga ko'p narsalarni beradi

turli xizmatlar, masalan: daromad, aloqa, ko'p ma'lumotlar mavjud. Lekin! Bularning barchasida ko'plab minuslar mavjud, ular ortiqchalardan ko'proq:

- elektromagnit nurlanish ta'siri
- axborotni yo'qotish stresi
- virtual dunyoga qaramlik
- axborotning ommaviy mavjudligi
- ruhiy kasalliklar

Internetga qaramlik- insonning internetda iloji boricha ko'proq vaqt o'tkazishga obsesif istagi, undan uzilib, haqiqiy dunyoga qaytishga qodir emasligi ruhiy kasallik. Shifokorlar buni giyohvandlik va spirtli ichimliklarga qaramlik bilan solishtirishadi.

Xususan, ko'pchilik yoshlar vakillari uchun real hayotdan ko'ra Internetda muloqot qilish qulayroq. Bu shaxsning jamiyatdagi o'z o'rnini topishida salbiy iz qoldiradi, uni yanada cheklaydi. Ijtimoiy tarmoqlarning hamma uchun qulayligi, tezda axborot almashish mumkinligi, ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z dunyoqarashini namoyon qilishning eng qulay usuli sifatida foydalanuvchi yoshlar orasida uning juda mashhurligi tufayli hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri juda yuqori ekani ta'kidlandi.

Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o'zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo

bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanar ekan. Xalq tilida internet - o'rgimchak to'ri. Mening nazarimda esa ijtimoiy tarmoq - dengizga o'xshaydi. Unda suzish ham, cho'kish ham o'zimizga bog'liq.

Virtual muloqotning avj olishi jonli muloqotga bo'lgan ehtiyojning pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda jamiyatimizda o'zining doimiy ko'rishib turadigan yaqinlari bilan ham ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiluvchi insonlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Bunday muloqot esa real voqelikdan ayri holda kechadi va inson o'zining hissiy kechinmalarini tasvirlab bera olmaydi. Yoshlar kamolotiga, ularning hulqatvoriga va intellektiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Bu o'rinda esa albatta, jamiyatda alohida nufuzga ega bo'lgan internet vositalarining roli beqiyosdir. Muhtaram Prezidentimiz I.Karimov o'zlarining bir qator ma'ruzalarida "Biz butun dunyoni qurshab olgan internetni cheklay olmaymiz" – deb ta'kidlab o'tganlar. Demak, biz farzand tarbiyasida uning yuksak ma'naviyatli, axborot madaniyati iste'molida mustahkam ma'naviy immunitetga ega, Vatan va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida hamda puxta bilim egasi qilib

tarbiyalab borishimiz lozim.

«Raqamli asr»da o'sib ulg'ayganlar telefonsiz hayotni bilmas, o'z do'sti, hatto oila a'zosi ham o'rnini bosadigan Google'siz dunyoni ko'rmaydilar. Internet ular uchun odatiy hol va shuning uchun ular virtuallik va real dunyo o'rtasidagi farqni ko'rmaydilar. Z avlodi o'rganishni va bilim olishni yaxshi ko'radi. Ular pragmatistlar, ular hamma narsaning mantiqiy izohi borligini bilishadi, barcha narsaga chuqur qarashadi. Ular iqtisodiyot axborotga aylanib borayotganini va g'oyalar hamma narsadan yaxshiroq sotilishini tushunishadi. «Raqamlar» bolalarining dunyoga ilmiy inqilob berish ehtimoli yuqori, chunki ular allaqachon texnologik yutuqqa tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Bugun insoniyat ijtimoiy tarmoqlarsiz salkam yasholmaydigan darajaga yetdi. Jamiyatda faol odam bu virtual olamda kamida uchta tarmoqni kuzatadi: Telegram, Feysbuk, Instagram. Yana tibbiyotchilar, dasturchilar, vebmasterlar, huquqshunoslar, maorif xodimlari uchun alohida tor doiradagi ijtimoiy tarmoqlar ham mavjud.

Ko'pincha yolg'iz kishilar ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolishadi — ular shu tariqa o'zlariga «surrogat» muloqotni hosil qilishadi. Lekin aksar hollarda bu yolg'izlik soxta va o'ylab topilgan bo'ladi — ya'ni odam jisman jamiyatda yashaydi, ammo aslida atrofdagilari bilan muloqot qilmaydi. Ijtimoiy tarmoqlarga quyidagi toifadagilar tez-tez mehmon bo'lib turishadi: voqea-hodisalarga boy kishilar; tengdoshlari bilan muomala qilolmaydigan o'smirlar; yosh onalar — «go'dak uyquda mahal»; shuningdek, o'ta kirishimli odamlar. Vaqt o'tishi bilan miyada real va virtual olam o'rtasidagi chegara yo'qoladi va odam do'stining tug'ilgan kunida gul va tort bilan smayliklar jo'natish o'rniga shunchaki mehmonga borish mumkinligi to'g'risida unutadi. Virtual muloqot qaramlar uchun yagona aloqa vositasiga aylanadi va ularni yoqtirgan mashg'ulotidan internet yo'qligi kabi favqulodda holatgina ayirishi mumkin. Negaki ular atrofida qiziqarli, jonli, haqiqiy hayot borligini unutishadi! Qolaversa, qaram kishilar uni payqamay qo'yishadi.

Ijtimoiy tarmoqlardan yolg'iz «qutulish» juda mushkul. Nomidan ham bilinib turibdi — tarmoq! Ularda erishsa bo'ladigandek ko'ringan imkoniyatlar va qiziqarli narsalar haddan tashqari ko'p. Shu bois, «jabrlanuvchi»ning yaqinlari qancha erta harakatni

boshlashsa, uni haqqoniy hayotga tez va samarali qaytarish ehtimoli shuncha yuqori bo‘ladi. Ko‘pincha tajribali psixologlar ko‘magisiz buni uddalash qiyin. Kamdan-kam odamlargina ushbu halokatli qiziqishdan oson va beziyon qutulishi mumkin. Faqat kuchli irodasi bilan maqtana oladigan, yaqinlariga, orzusiga erishish, mustaqil bilim olishga sarflaydigan vaqtini behuda ketkazayotganini tushunadiganlarga bunga muvaffaq bo‘ladilar. Biroq o‘z hayotingizni o‘zgartirishga qat’iy ahd qilgan bo‘lsangiz, ijtimoiy tarmoqlardagi vaqtingizni oldindan tartibga solishga harakat qiling, o‘z sahifangizga shunchaki kirmang. Bajarishingiz zarur bo‘lgan ish ro‘yxatini tuzib chiqing. Hamma ishlarni bajarib bo‘lgandan keyingina «bonus» sifatida yoqtirgan ijtimoiy tarmog‘ingizga kirishingiz mumkin. Yana bir amaliy usul — virtual emas, real olamda do‘stlar bilan muloqot qilish. Birgalikda sayohatlarga otlanish, tabiat qo‘yniga chiqish yoki qahvaxonalarda (faqat u yerda bepul vay-fay tarmog‘i bo‘lmasin) o‘tirishni kelishib olish mumkin. Bu vaqtni aynan hordiq, do‘stlar bilan muloqot, telefonda gaplashish uchun sarflashga harakat qiling!

Xulosa o‘rnida aytmoqchimanki, jamiyatimiz hayoti fan-texnologiyalar rivoji bilan tobora uyg‘unlashib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Shunday ekan, har birimiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatiga amal qilishimiz kerak. Yoshlarning ruhiy-ma’naviy olamini turli xil buzg‘unchi va zararli g‘oyalardan himoya qilish orqali taraqqiyot poydevori yaratiladi. Zero, ma’naviy barkamol, intellektual salohiyatli avlod tarbiyasi eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Internet yoshlar manfaati uchun xizmat qilishi kerak. Agar ularga axborot savodxonligi asoslari o‘rgatilsa, bu eng istiqbolli yoshlar bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/ijtimoiy-tarmoqlar-ga-qaramlik-xxi-asr-epidemiyasi>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/ijtimoiy-tarmoqlarning-yoshlar-xulq-atvoriga-tasiri>
3. <https://yuz.uz/uz/news/internet-va-ijtimoiy-tarmoqlarning-yoshlarga-tasiri>
4. Ташиметов Т. X. 2020. Academic Research in Educational Sciences, 13.